

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYIY KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHALTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

ON THE WEAPONS OF THE ARMY OF THE KOKAND KHANATE

Tursunov Bekzot Yandashevich

Candidate of Historical Sciences

Senior Lecturer at the Department of Social Sciences

“University of Business and Science”

Abstract. This article analyzes the level of armament supply of the Kokand Khanate's army, the production of military equipment, the condition of military workshops, and their supply system. It also examines the types of weapons, their compliance with the demands of the time, their improvement, as well as the achievements and shortcomings in this area.

Keywords: Kokand Khanate, military affairs, level of armament, defense capability, regular army, auxiliary units, army supplies, military workshops, weapons, sword, flintlock, gunpowder, cannon, shield, spear.

QO'QON XONLIGI QO'SHINING QUROL-ASLAHALARIGA OID

Tursunov Bekzot Yandashevich,

tarix fanlari nomzodi

“University of Business and Science”

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: Bek240977@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon xonligi qo'shinining qurol-aslahalar bilan ta'minlanganlik darajasi, harbiy anjomlarning tayyorlanishi, harbiy ustaxonalarning holati hamda ularning ta'minoti tahlil etilgan. Shuningdek, qurol-yarog' turlari, ularning zamon talabiga mosligi hamda takomillashuvi, bu borada erishilgan yutuq va kamchiliklar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, harbiy ish, qurollanish darajasi, mudofaa salohiyati, muntazam qo'shin, yordamchi bo'linmalar, qo'shin ta'minoti, harbiy ustaxonalar, qurol-aslaha, qilich, pilta, porox, to'p, qalqon, nayza.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N05>

Kirish. Qo'qon xonligi tashkil topgan davrdan boshlab, boshqaruv tizimini shakllantirish hamda mamlakat hududini kengaytirish borasida oliy hukmdorlar tomonidan qator islohotlar amalga oshirildi. O'z navbatida mamlakat daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'p sonli qo'shinga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etgan. Qolaversa, ichki boshqaruvdagi beqaror siyosiy vaziyatning mavjudligi qo'shinning miqdori va sifatiga alohida e'tibor qaratishni talab qilardi.

Qo'shin sonini bir necha marotaba oshirishga qaratilgan bu tadbirlar mamlakatni murakkab siyosiy voqelik tugunidan xalos eta olmas, muammoning yechimi qo'shinning qurollanish darajasi, qurol-yarog'larning zamonaviy talablarga javob berish masalasiga bog'liq edi. Qo'qon xonligida askarlarning qurol-yarog'lari qanday holatda ekanligi, qay darajada rivojlanganligi, harbiylarning aslaha anjomlariga bo'lgan ehtiyoji qanday ta'minlanganligi kabi

masalalarni mazkur davrga oid manba va arxiv hujjatlari ma'lumotlariga asoslanib tadqiq qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qo'qon xonligining mudofaa tizimida muhim ahamiyat kasb etgan chegara qal'alariga oid ayrim qisqa ma'lumotlar A.I.Bryanov asarlarida mavjud. Bu asarlar Qo'qon qal'alarining joylashgan o'rni, ahamiyati, undagi askarlar soni, qurol-yarog'i va mudofaa tizimi haqida ayrim tarixiy ma'lumotlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi [2].

XIX asr mualliflaridan I.Paramonovning "О туземном оружии в Туркестанском крае" maqolasida Qo'qon xonligidagi harbiy ustaxonalar va bu ustaxonalarda ishlab chiqarilgan qurol-yarog'lar haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Bu muallif xonlikdagi harbiy qurollar va ularning tayyorlanishi jarayoni haqida yozar ekan, qo'shinining qurol-aslahasi o'z davriga nisbatan ancha soddaligi, ilg'or mamlakatlarda tayyorlangan qurollardan ortda qolganligini ta'kidlagan [13].

V.P.Kurilev asosan, Qozog'iston va O'rta Osiyodagi qurol-aslaha masalalariga e'tibor qaratilgani holda, ularda Qo'qon xonligi qo'shinining qurol-aslahalari masalasiga doir ayrim ma'lumotlar ham chetlab o'tilmagan [9].

Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligi tarixini kengroq o'rganish imkoniyatini beruvchi mahalliy tarixchilarning bir necha asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu davrda Qo'qon xonligi tarixini o'rganish borasida olimlar qator ijobiy natijalarga erishdilar. Jumladan, Z.IIhomovning bir qator maqola va risolalari muhim o'rin tutadi [6].

Muhokama. Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, dastlab Qo'qon qo'shinining qurol-yarog'i boshqa O'rta Osiyo xonliklaridagi kabi oddiy o'q otar va sovuq qurollardan iborat bo'lgan. Bu qurollar, asosini mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan xanjar, qilich va nayza kabilar tashkil etgan. Mahalliy ustalar tomonidan yasalgan bu qurollar odatda otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan.

Qo'qon hunarmandlari orasida qurol-aslaha va jang kiyim-kechaklari ishlab chiqaradigan ustalar va kosiblar katta obro' va hurmatga ega edilar. Mahalliy ustalar tomonidan ikki turdagi qilich tayyorlangan bo'lib, ularning birinchisi egik oysimon ko'rinishda, ikkinchisi to'g'ri shaklga ega edi. Oysimon ko'rinishdagi qilich xonlik qo'shinida keng tarqalgan bo'lib, bu turdagi qilichlar yengil va o'tkir bo'lib, zarba berishda aniqlik bilan harakat qilish imkoniyatini berar edi. U aynan shu sifatlari bilan Yevropa qilichlaridan ustun turar edi [13; B.216.]. Qilichlarning dastasi hayvon shohi, fil suyagi va daraxtlardan tayyorlangan. Qilich qinlari odatda yog'ochdan tayyorlanib, uch qismiga metall qoplangan. Qilichlar sifati uning tayyorlanish muddatiga bog'liq bo'lgan. Sifatli qilichlar 15 kunda tayyorlangan bo'lsa, sifat ko'rsatkichi u qadar yuqori bo'lmagan qilichlar 3-5 kunda tayyor bo'lgan [13; B.217.]. Qo'l jangida foydalaniladigan qilich, xanjar nayza kabi qurollar doimo bir xil miqdorda ishlab chiqilmagan. Harbiy harakatlar vaqtida bunday qurollarni tayyorlash miqdori bir necha marotaba oshgan. Bunday qurollarga bo'lgan talab, ularning mavjud miqdoriga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish kerakki, XVIII asr oxiri — XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon qo'shinida O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida kuzatilgani kabi, o'q otar qurollarning keng tarqalishi bilan sovuq qurollar — xanjar, qilich, nayza hamda askarlarning himoya vositasi bo'lgan sovut, dubulg'a, qalqon kabilarning ahamiyati pasaya boshladi. XIX asr 20-yillarida rossiyalik Ye.K. Meyendorf Buxoro sipohlarining "Ayrımları kalta sovut, temir dubulg'a va ho'kiz terisidan qilingan qalqonga ega" — deb qayd etgan edi [11; B.140.]. Bunday holatdan

Qo'qon qo'shini ham mustasno emasdi. Rus qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligiga qarashli Merka qal'asi 1862-yilda bosib olinganida, qo'lga olingan o'ljalor orasida quyidagi qurollar: ikkita to'p, ikkita fal'konet, 82 ta miltiq, 3 ta qalqon, bitta sovut, 24 ta tig', 113 ta qilich bo'lgan [21; B.211.].

Qo'qon hukmdorlari XIX asr boshlaridan qo'shinni zamon talabiga mos ravishda qayta tashkil etish, uning harbiy taktik tayyorgarligi va mahoratini oshirish maqsadida ingliz, afg'on va turkiyalik mutaxassislarni taklif etishga harakat qilganlar. Shu bilan birga xonlik qo'shinini Yevropada tayyorlangan qurollar bilan ta'minlashga uringanlar. Jumladan, Qo'qon xoni Sulton Sayid tomonidan Turkiyaga elchi qilib jo'natilgan Said Yoqubxon to'ra Sulton Abdulazizdan to'rt dona zambarak, to'pponchalar, andoza olish uchun turk qo'shinining harbiy kiyimlaridan bir donadan berishlarini iltimos qilgan [6; B.74.]. Bu kabi islohotlarni Xudoyorxon ham amalga oshirgan. Bu xususda "Tarixi Aziziy" asarida shunday yoziladi: "Xudoyorxon sallotlari (askarlari) sonini juda ko'paytirdi va yaxshi to'plarni mavjud qilib, yaxshi miltiqlarni Islombuldan oldirib keldi. Yaxshi ustalarni topib kelib, o'shanday miltiq va to'pponchalarni ko'paytirgan edi" [10; B.15.].

Xorijlik mutaxassislar tomonidan qurol-yarog' tayyorlanganligi haqida arxiv hujjatlari ham saqlanib qolgan. Shulardan birida 1860-yilda Ismoil ismli savdogar Toshkentda bo'lgan vaqtida Qo'qonda fransuz va inglizlardan iborat bir necha kishi qurol-yarog', aynan to'p quyish bilan shug'ullanayotganligi haqida ma'lumot beradi va Yevropa uslubida tayyorlangan 12 ta mis to'plarni ko'rganligini yozadi [20; B.105.]. Turkiya sultoni Qo'qon lashkarboshilaridan biri Yoqubbekka XIX asrning 30-40 yillarida qurol-yarog' va harbiy ilmdan xabardor Zamonbek ismli kishini jo'natganligi haqida ma'lumot ham mavjud [3; B.100.].

Xonlik qo'shini ehtiyojlari uchun chet elda tayyorlangan miltiqlar sotib olinganligi haqida ma'lumotlarni XIX asrning 70-yillariga oid bo'lgan Qo'qon xonlari arxivi hujjatlari, o'sha davrda yashab ijod etgan mahalliy tarixchilar va nihoyat Qo'qon xonligida bo'lgan rus sayyohlarining asarlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, bu davrga oid arxiv hujjatlaridan birida Azizxo'ja miltiqboshi ismli shaxsga Mulla Muhammad sarkor tomonidan Yevropada tayyorlangan miltiq sotib olish uchun pul ajratilgani haqida xabar beriladi [25.]. Shuningdek, arxiv hujjatida Azizxo'ja miltiqboshi tomonidan bu pulga yevropacha miltiq (kamoni farangi) sotib olingani ham qayd etilgan.

Qo'qon xonligida qo'shin sonining ortib borishi tabiiy ravishda qurol-yarog' turlariga bo'lgan talab oshishiga olib keldi. Bu talabni doim ham chet el qurollari hisobidan qondirib bo'lmas edi. Chunki, chet eldan keltirilgan qurollar xazinaga qimmatga tushishi bilan bir qatorda, ulardan foydalanishni o'rgatuvchi va saqlovchi mutaxassislar ham yetishmas edi.

Shuning uchun ham Qo'qon hukmdorlari qo'shinning qurol-aslahaga bo'lgan ehtiyojini mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan qurollar bilan qondirishga harakat qilganlar. Bunda asosiy e'tibor, turli qurol-yarog'lar ishlab chiqaruvchi mahalliy ustaxonalariga qaratilgan. Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalar tahlili qo'shinni turli qurol-aslaha bilan ta'minlovchi bir necha xil ustaxonalar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Harbiy sohaga aloqador bo'lgan ustaxonalarning (to'p, snaryad, porox, sovuq qurollar tayyorlovchi, artilleriya uchun kerakli jihozlar tayyorlovchi) aksariyat qismi xon va uning xonadoni a'zolariga qarashli bo'lgan [12; B.206.]. Garchi, O'rta Osiyoda qurol ishlab chiqarish bir necha ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, xonliklar davrida dunyoviy bilimlar va texnik sohadagi oqsoqliklar natijasida Yevropadagi fan-texnika inqilobidan deyarli bexabar qolingan. Oqibatda, xonliklardagi deyarli barcha sohalarda

o'z qobig'iga o'ralib qolish qurol-yarog' ishlab chiqarishda ham o'rta asrchilik an'alarining saqlanib qolishiga olib kelgan. Bunday holatni xonlikdagi barcha qurol ishlab chiqaruvchi ustaxonalarda kuzatish mumkin. Miltiq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonalar ikki turga bo'lingan. Birinchi turdagi ustaxonalarda pilta miltiq, ikkinchisida esa Yevropa andozalaridagi miltiq tayyorlangan.

O'rta Osiyoda miltiq jang va ov quroli sifatida XVI asr oxirlariga kelganda keng tarqalgan [5; B.21.]. Pilta miltiq Qo'qon xonligi qo'shinida XVIII asr boshlaridan ommalashgan ilk o'q otar qurollardan biri edi. U chaqmoq tosh orqali yoqib otilgan. XIX asr muallifi I. Paramonov bu xususda shunday yozadi: "Ular qurollarining asosiy qismi pilta miltiqlardan iborat. Bu turdagi qurollar stvoli asosan Yevropada tayyorlangan. Aksari ko'pchiligi Hindistondan keltirilgan. Mahalliy ustalar tomonidan yasalgan stvollar ham mavjud, lekin, ularning sifat ko'rsatkichi juda ham past darajada. Qo'ndiq va miltiqning yondiriluvchi moslamalarining barchasi mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan. Otish vaqtida o'zlari uchun qulaylik tug'dirish maqsadida ayrilardan ham keng foydalanadilar" [13; B.218.].

Qo'shindagi miltiqlar kalibri jihatidan turlicha bo'lgan. Ba'zi miltiqlarda qo'l jangida ishlatiladigan nayzalar o'rnatilgan bo'lsa, ayrimlarida bo'lmagan. Asta-sekinlik bilan Qo'qon xonligi qo'shinida ham Yevropa andozalariga mos keluvchi qulfi miltiq va to'pponchalar soni ortib bordi [7.].

Miltiq tayyorlovchi ustaxonalar xonlikning turli shahar va viloyatlarida joylashgan bo'lib, ular yuqorida qayd etilganidek xon xazinasi tomonidan ta'minlangan [14; B.312-313.]. Qurol, ya'ni, miltiq ishlab chiqarish bo'yicha Namangan shahri alohida ajralib turgan. Miltiqlar uchun stvollar, asosan Rossiyadan keltirilar edi [8; B.66-67.]. Andijonda esa Yevropa uslubiga mos miltiqlar ustaxonasi qurilgan bo'lib, unda miltiq va boshqa qurollar ta'mirlanar edi [12; B.207]. V.Velyaminov-Zernov xonlik ustalari tomonidan tayyorlangan miltiqlar talab darajasiga javob bermaydi, deb hisoblagan [4; B.207.].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili Qo'qon xonligida miltiq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik korxonalar bo'lmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Yevropada tayyorlangan miltiqlarga o'xshash miltiqlarni tayyorlash uchun ehtiyot qismlari Rossiyadan hamda Hindiston va Afg'oniston orqali boshqa yerlardan keltirilganligi, xonlikdagi ustaxonalar yig'uv sexlari vazifasini bajarganligidan dalolat beradi. Albatta, XIX asr o'rtalariga kelib oliy hukmdorlar tomonidan qurol-aslaha ishlab chiqarish sohasiga ko'plab chet ellik mutaxassislar jalb etilishi, qo'shinda miltiqlar soni va sifatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, xonlikda tayyorlangan qurol-aslahalar nafaqat xonlik qo'shini, balki, qo'shni hududlarda yashovchi aholiga ham sotilgan. Qozoqlarda ov va jang quroli hisoblangan miltiqlarning aksari qismi, O'rta Osiyo xonliklarida tayyorlangan [9; B.22.]. Qirg'izlar esa o'q otar qurollar, aynan miltiq va unga kerakli bo'lgan porox va boshqalarni Qo'qon xonligidan olganlar. Qo'qonda ishlab chiqarilgan bu qurollar savdo karvonlari bilan boshqa yurtlarga jo'natilgan, xususan, qirg'izlar uchun ko'proq qurol-aslaha olib borilganini kuzatish mumkin [16; B.8.].

To'prezlar, qo'rchilar, jibachi, miltiqsoz, nayzasoz, zirhsozlar Qo'qon, O'ratepa va Marg'ilonda yashardilar. Qo'qonda Xudoyorxon davrida (1865-1876) maxsus porox ishlab chiqaradigan ustaxona ham faoliyat ko'rsatgan. Porox Marg'ilonda, Andijonning Chaykent qishlog'ida, viloyatlar markazlarida ham ishlab chiqarilardi. Porox nafaqat hukumatga qarashli bo'lgan korxonalarda balki, xususiy ustaxonalarda ham tayyorlangan. Qo'qon xonligida

tayyorlangan poroxning sifati haqida 1860-yilga oid arxiv hujjatlarida shunday ma'lumotlar bor.: "Qo'qon poroxining sifati juda ham yomon. Uning tarkibida ko'mir ko'p bo'lib, tez namlanadi. Agar qo'lga yoki qog'ozga solinsa, qora chang qo'lda qoladi" [20; B.258.]. Bundan ko'rinib turibdiki, xonlikda tayyorlangan poroxning sifati yaxshi bo'lmagan. Lekin, qo'shinda porox yetarli bo'lgan. Xonlik qo'shinida porox yetarli bo'lganini quyidagi arxiv ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Unda qayd etilishicha, Qo'qon xonligiga qarashli To'qmoq qal'asi 1860-yilda bosib olinganda u yerdan 32,5 pud porox zaxirasi topilgan [20; B.341.].

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, qal'alarda porox saqlanadigan joy nihoyatda sir tutilgan. Porox saqlanadigan o'ra o'limga hukm qilingan jinoyatchi mahbuslar tomonidan qazilgan va ular mazkur o'ralar tayyor bo'lgandan so'ng qatl etilgan [1.].

Xonlikda takomillashgan qo'shinning tashkil topishi va davlat chegarasida ko'plab qal'alarning bunyod etilishi to'pchi qismlari-artilleriyaning shakllanishiga turtki bo'lgan. Xonlikda artilleriya qismining to'plarga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi to'p ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham mavjud edi. Qo'qon xonlari arxividagi XIX asr 70-yillarga oid hujjatlarda bunday ustaxonalar "To'bxona", "Ishxonai to'bxona" tarzida qayd etilgan [14; B.320-330.]. Bu ustaxonalarda to'p va ular uchun kerakli anjomlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi. Arxiv hujjatlari ma'lumotlariga asoslangan holda bu ustaxonalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatish mumkin. Bular — to'plar uchun yadro tayyorlovchi ustaxonalar "korxonai tiri to'brizon"; yadro va porox – "doru" uchun quti "sandiqlik" tayyorlovchi ustaxonalar; to'p va miltiqlar uchun shompol (miltiq trubasini tozalash uchun ishlatiladigan asbob) va banniklar (to'plar trubasini tozalash uchun ishlatiladigan asbob) tayyorlovchi ustaxonalar; to'plar uchun taglik va aravalar tayyorlovchi ustaxonalar. To'p quyuvchi ustaxonalar Qo'qon xonligining Toshkent bekligida, Qo'qon va Andijon shaharlarida faoliyat ko'rsatgan.

Qo'qon xonligi qo'shinida qo'llanilgan to'plarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, qal'a himoyasida ishlatiladigan katta kalibrli, bir joydan ikkinchi joyga olib borish qiyin bo'lgan qal'a to'plari — "jaloir" bo'lsa, ikkinchisi dala janglarida ishlatiladigan, olib yurish qulay bo'lgan kichik kalibrli "shoxmali" va "yazali" to'plaridir. Buni arxiv ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Ularda ayrim xonlik to'plarini bir joydan ikkinchi joyga olib borish qiyin bo'lgan, ayrim Qo'qon to'plari olib yurishga juda qulay deb qayd etilgan [19; B.86.].

Qo'qon to'plari mis va cho'yandan tayyorlangan. Aksari ko'pchilik to'plar misdan tayyorlangan va bu xonlik xazinasiga qimmatga tushgan. XIX asrning 60-70-yillariga oid arxiv hujjatlarida qayd etilishicha ayrim hollarda qo'shinni kerakli miqdorda to'p bilan ta'minlash maqsadida aholining xo'jalikda ishlatiladigan mis buyumlari yig'ib olinib, ulardan to'p quyilgan hollar ham kuzatilgan [17; B.230.].

Bu holat xonlik qo'shinining to'plarga bo'lgan ehtiyojining o'sib borishi ularni ishlab chiqarish uchun kerakli tabiiy boyliklarni qazib chiqarishga mutanosib bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Katta kalibrli qal'a to'plari asosan himoyada ishlatilgan. Harbiy yurishlarda aksari hollarda tuyalarda "shoxmali" va otlarda "yazali" to'plari olib yurilgan. Aravaga mustahkam o'rnashtirilgan to'plardan jang maydonlarida foydalanilgan. Qo'qon to'plarining jang maydonida qo'llanishi holati haqida V.Velyaminov-Zernov shunday yozadi: "Qo'qonliklarning "yazali" deb nomlanadigan to'pidan faqat bir tomonga — ortga otish mumkin. Chunki, oldidan ot, ikki yondan aravaning g'ildiraklari otishga xalaqit beradi" [4; B.116.].

To'plardan otiluvchi yadro, asosan cho'yandan, ayrim hollardagina qo'rg'oshindan tayyorlangan. Yadro quyidagicha tayyorlangan. Mayda temir bo'laklari, mix parchalari ustidan cho'yan quyilgan. Ba'zan yadro markaziga tosh ham qo'yilgan. Ayrim yadrolarning markazi ataylab teshib qo'yilar edi. Otilgan vaqtda u tovush chiqarib uchgan va bu holat dushman qo'shinini cho'chitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan [4; B.116.]. Dastlabki yadrolar portlovchi bo'lmagan. Keyinchalik portlovchi yadrolar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan [1.]. Qo'qon ustalari tomonidan yasalgan to'plar, aytish mumkinki, zamonaviy talablarga javob bermagan. Bu xulosani rus harbiylari fikrlari ham tasdiqlaydi: "Qo'qonliklar artilleriyasining samaradorlik va taktik darajasi nihoyatda past. Bundan tashqari, ularning to'plarini qimirlatmasdan mustahkam tutuvchi taglik va mo'ljalga olish imkonini beruvchi birorta moslama mavjud emas. Qo'qon artilleriyasini ibtidoiy ko'rinishda desa ham bo'ladi" [20; B.258.].

Harbiy sohadagi islohotlar, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xonlikka ko'plab chet ellik mutaxassislarning taklif etilishi, qo'shinda zamonaviy tartiblarning joriy qilinishi, qurol-yarog'ning takomillashuviga olib kelgan. Mukammallashuv ayniqsa artilleriya sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mallaxon davrida Qobul orqali kelgan ingliz mutaxassislarining Qo'qon ustaxonalarida to'p va snaryadlar tayyorlashi, artilleriyaning jangovar qobiliyatini yanada oshiradi [20; B.254.]. Qo'qon xonligi qo'shini, xususan, artilleriyasining takomillashib borganligi rus armiyasi zobit va harbiy mutaxassislari hisobotlarida ham o'z tasdig'ini topgan. Sibir korpusing generali Gosfort 1855-yilning 6 iyunida bergan hisobotida Qo'qon qo'shini takomillashib borganini quyidagicha bayon qiladi: "Ularning (qo'qonliklarning — B.T.) lagerida bo'lib qaytgan qirg'izlar, chet elliklar va turk sultoni jo'natgan harbiy mutaxassislardan tomonidan qo'shinda zamonaviy tartiblar joriy qilinganini ko'rganliklarini bildirdilar" [18; B.91.]. Qo'qon qo'shinidagi ijobiy o'zgarishlarni general M.G. Chernyaev Chimkent qal'asini qo'lga kiritganidan so'ng oliy qo'mondonlikka yozgan bayonotida ham tasdiqlaydi: "Chimkent qal'asini olishda biz artilleriyaning tezlik va aniqlik bilan o'q uzishi va yerga kelib tushgandan so'ng portlovchi yadrolarni ko'rib hayratlandik. Men qo'lga kiritgan ma'lumotlarga ko'ra Toshkentda to'p quyish bilan yevropalik shug'ullanayotgan ekan" [23; B.178.]. 1865-yil mayda Niyozbek qal'asini qo'lga kiritgan general M.G. Chernyaev o'z hisobotida Qo'qon xonligi o'z qurollarni takomillashtirganini yana e'tirof etgan. "Qo'lga kiritilgan o'ljalar orasidagi to'plar, bizning to'plar kabi sifatli va mustahkam ishlangan. Miltqlariga ham bizniki kabi nayzalar o'rnatilgan" [23; B.275.]. Bundan ko'rinib turibdiki, oliy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar qisman bo'lsada, o'z samarasini bergan. Ammo, bundan chet ellik mutaxassislardan kelgunga qadar Qo'qon xonligida to'plar son jihatidan kam bo'lgan degan xulosaga kelmaslik kerak. Garchi, Qo'qon to'plarining sifati talabga javob bermasada, son jihatidan salmoqli darajada bo'lgan. Jumladan, 1854-yilga oid arxiv hujjatlarining ko'rsatishicha, Qo'qonda to'p quyish ustaxonasi mavjud bo'lib, ma'lumot berilgan davrda bu markazda 17 dona to'p tayyorlangan edi [22; B.169.]. Shu davrdagi ma'lumotlarga ko'ra, Andijon shahrida ham anchagina katta qurol ishlab chiqaruvchi ustaxona bo'lib, unda yiliga beshta to'p tayyorlangan [15.].

Turli urushlar va harbiy harakatlar oqibatida Qo'qon xonligi o'z qurol-yarog'ining ancha qismini yo'qotgan. Jumladan, chor Rossiyasi armiyasi tomonidan xonlik chegara qal'alari va yirik chegara shaharlari bosib olinishi natijasida ko'plab askar va moddiy vositalar katta qismi o'lja sifatida qo'lga kiritilgan. Bu o'lja 39 ta to'p, 1500 ta miltiq, ko'p miqdorda porox, snaryad,

qo'rg'oshin zaxiralari va 1910 pud un, 3200 pud jo'xori, 224 ta otdan iborat edi [2; B.39]. Bu kabi yo'qotishlar xonlik harbiy qudratiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Qo'qon xonligida Yevropa davlatlaridagi kabi temir yo'llar yo'qligi va suv transportidan foydalanish imkoniyati cheklanganligi bois, harbiy harakatlar davomida asosiy aloqa va transport vositasi sifatida aravalardan foydalanilgan. Qo'qon qo'shini uchun zarur bo'lgan qurol-yarog', o'q-dori va oziq-ovqat mahsulotlari aravalarda tashilganini arxiv hujjatlari ham tasdiqlaydi. Shunday hujjatlardan biri 1871-yilga oid bo'lib, unga ko'ra Mulla Abdujalil Mirzaboshiga Vodilga olib ketilayotgan porox (doru) va qo'rg'oshin ortilgan aravalarga to'lash uchun Baxti Muhammad qo'rboshi tomonidan pul ajratilgan [24.]. Arxiv hujjatlarining ko'rsatishicha, ayrim hollarda Qo'qon xonligida piyodalar bo'linmasi bir joydan ikkinchi joyga aravalarda tashilgan [14; B.306.]. Bu ikki holatda ham hujjatlarda arava uchun pul to'lash buyurilganligi qayd etiladi. Bu ma'lumot transport vositalari xizmatidan ijara asosida foydalangan bo'lishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa. Qo'shinning moddiy vositalar va qurol-aslahaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlovchi ustaxonalarga davlat tomonidan katta e'tibor berilgan. Lekin xonlikda qurol-yarog' ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Yevropa davlatlaridagidek yirik korxonalar bo'lmagan, qurol-aslaha ishlab chiqarishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanilmagan. Mavjud ustaxonalarda esa barcha ishlab chiqarish jarayoni faqat qo'l mehnatiga asoslanganligi qurol-yarog'lar ishlab chiqarish borasida barcha O'rta Osiyo davlatlari kabi Qo'qon xonligining ham zamondan orqada qolishiga sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida xonlik qo'shinining chor Rossiyasi armiyasining tajovuziga qarshi turishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan va oqibatda Qo'qon xonligining Rossiya tomonidan tugatilishiga olib kelgan omillardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдулгафоров Саттархан. Краткий очерк Кокандского ханства // ТВ. - № 29.
2. Брянов А.И. На память о Фергане. 1876-1901 г. - Новый Маргелан, 1901.
3. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического Общества. - Спб., 1856. Т. 18.
4. Веселовский Н. Бадаулеть Якуб-Бек Аталык Кашгарский. - Спб., 1898.
5. Давидов А.С. К истории огнестрельного оружия в Средней Азии // История и этнография народов Средней Азии. - Душанбе, 1981.
6. Илхомов З. Аликули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тари- хида тутган ўрни.: Тарих фанлари номзод... дис. - Т., 2004.
7. Кокандская гвардия в русских военных обносках // Биржевые ведомости 1870. - № 384.
8. Кокандское ханство (по новейшим известиям) // Туркестанский сборник. Т.23. - Спб., 1980.
9. Курылев В.П. Оружие казахов // Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. - Л., 1978.
10. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - М., 1975.
11. Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. - Т.: Маънавият 1999. - 112 б.
12. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худоярхана). - Т.: Фан, 1973.
13. Парамонов И. О туземном оружии в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. Т. 57.

14. Троицкая А.Л. Материаль по истории Кокандского ханства XIX в. по материалам архива Кокандских ханов. - М.: Наука. 1969.
15. Туркестанские ведомости. - 1872. - № 30.
16. Хасанов Х.А. Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства. - М., 1977.
17. O'z MA, I-1043-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 2051-ish.
18. O'z MA, I-1043-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 2162-ish.
19. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 15-ish.
20. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 16-ish.
21. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 17-ish.
22. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 23-ish.
23. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 26-ish.
24. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 26^b-ish.
25. O'z MA, I-715-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 28-ish

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).